

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR寧 RIVOJLANISHIDA IJODIY  
QOBILIYATLARNING NAMOYON BO'LISH BOSQICHLARI**

**Yoriqulova Gulnigor Soxibjon qizi**

*Qorako'l pedagogika texnikumi katta o'qituvchisi*

**Annottatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar宁 rivojlanishida badiy-ijodiy qobiliyatlarining namoyon bo'lishi, syujetli rolli o'yinlar orqali bolalar宁 ijodkorlik qibiliyatlarini rivojlanishi ular bilan olib boriladigan faoliyatlarini inobatga olish lozim. Bolalar宁 rivojlanishiga rasm chizish va bo'yash, qo'l mehnati va qo'l sa'ati, teatr o'yinlari va rolli o'yinlar, musiqa va raqs tabiat bilan tanishish bularning barchasi bolalar uchun nafaqat qiziqarli, balki o'z o'zini anglash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim faoliyat hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Badiy, ijodiy, ijodkorlik, teatr, syujetli- rolli o'yinlar, rasm, musiqa, tabiat, o'yin, tayyorlov guruh, qo'g'irchoq, tasviriylar faoliyat.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzlucksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi. Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'cha bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi, nutqi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirishishi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar宁 ijodiy qibiliyatlarini bir qancha turlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi misolida olamiz. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markazi bolalar iqtidorini namoyon bo'lishi, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni yana bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali axloqiy tarbiya olish, shuningdek tarbiyachi uchun oiladagi muhitni o'rganish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari bolalarda tabiatga nisbatan mehrni uyg'otishda ham bu markazning roli benihoya katta. Bola ekologik madaniyatining shakllanishi oila a'zolarining atrof-muhitga hamda ularning umumiy madaniyatiga nisbati bilan belgilanadi. Ushbu turdag'i faoliyatni tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkilotining o'rni tarbiyachi pedagoglarning shaxsiy va kasbiy fazilatlari, tarbiyachilar tarkibining madaniy darajasi va tarbiyalash, o'qitish, rivojlanish va maktabgacha ta'lim tashkilotida ekologik jihatdan rivojlangan muhitni yaratish uchun

maqbul shart-sharoitlar bilan tartibga solinadi. Rolli o‘yinlarning boshqa o‘yinlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatga egaligi ularda syujet, rol va xayol qilingan vaziyatning mavjud bo‘lishidir. Bolalar biror narsa yoki voqeа to‘g‘risida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lgandagina syujet, fikr, yuzaga keladi. Masalan, bolalar "paroxod" o‘yinini o‘ynamoqchi bo‘lishdi. Bunga o‘yining qanday borishi to‘g‘risida syujet kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog‘liq bo‘ladi. Bolalarda avval g‘oya paydo bo‘ladi, keyin mazmun rivojlanadi. Ba’zan bolalar o‘yining qanday borishini oldindan belgilab oladilar. Masalan, Afrikaga "bormoqchi" bo‘lsalar, sayohat vaqtida qilinadigan ishlarni oldindan belgilab oladilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, rolli o‘yin jamoatchilik xususiyatiga ega, chunki bolalar bir-birlari bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladilar. Rolli o‘yinda har bir bola o‘ziga olgan rollni bajaradi masalan, ona, haydovchi, tarbiyachi, enaga, san’atkor va hokazo. Rolli o‘yinlarda didaktik, qoidalı - harakatlı o‘yinlardagi singari qat’iy o‘rnatilgan qoida bo‘lmaydi. Bunda ko‘pincha bolalar o‘z hayol qilgan narsalari bo‘yicha harakat qiladilar. Masalan, "raketa tushib oyga uchadilar", "paroxodda suzadilar", "kasalni davolaydilar". Ammo bolalarning hayollari bilan o‘ynashlari ularni real voqealikdan uzoqlashtirib yubormaydimi? degan savol tug‘iladi, yo‘q, bolalar o‘zları buning o‘yinligini yaxshi biladilar. Shu bilan birga bolalarning kechinmalari, hayajonlari, qilgan harakatlari hammasi rostakam, sidqidildan bo‘ladi. O‘yin mavzusi bolalar olgan taassurotning kuchli, bolalarning qiziqishlari bilan belgilanadi. O‘yinda bolalar aks ettiradigan ijtimoiy-siyosiy voqealar bolalarning bilim doirasi va hayotiy tajribasining kengayib borishiga bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, maktabgacha ta’lim yoshdagи bolalarning ijod qobiliyatları intellektual rivojlantirish muhim rol o‘ynaydi. Axir biz bilimni aqliy uchun oziq-ovqat deb hisoblasak, unda ijodkorlik ruh uchun oziq-ovqat deb nomlashimiz mumkin. Harakatlı o‘yinlarning ko‘p qirrali tarbiyaviy ahamiyati, ularning maktabgacha yoshidagi bolalar uchun mosligi o‘yinlar yordamida yaratiladigan quvonch, bolalarni jalb qiluvchi faoliyat muhiti bularning hammasi harakatlı o‘yinlar yordamida, ular kundalik hayotining eng qimmatli ajralamas yo‘ldoshi o‘yinlar orqali ekanligini ko‘rsatadi. Maktab yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan o‘yinlarning turli tavsiflari mavjud.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar nutqini o‘stirishdagi didaktik o‘yinlardan foydalanish. (Boshqaruv va etika qoidalari online ilmiy jurnali: vol.2 No 2(2022):
2. Maktabgacha yoshidagi bolalarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachi kasbiy mahoratining ahamiyati [Journal of innovations in scientific and educational research volume-7 issue-11 \(30- november\)](#)

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik vositalari “YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM: KECHA, BUGUN VA ERTAGA” MAVZUSIDAGI Respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy anjumani materiallari

4. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy va ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik vositalari [Vol. 1 No. 4 \(2022\): Научный Импульс](#)

5. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar nutqini o’stirishdagi didaktik o’yinlardan foydalanish SYNERGY: JOURNL OF ETHICS AND GOVERNANCE Volume: 02 Issue: 02 | 2022 ISSN: 2181-2616

6. Bolalarning badiiy va ijodiy qibiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachi pedagogning o’rni va ahamiyati. YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI: MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING INNOVATSION RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari